

**PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARDA BIZNES VA
TADBIRKORLIK KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK
SHAROITLARI GERMAN SPARKASSENSTIFTUNG MISOLIDA.**

Mukumova Nargiza

Umarovna

Jizzax shahar 2-son Politexnikumi „
Maxsus fanlar” kafedrası biznes
asoslari fani bosh o'qituvchisi

Xasanova Gulnora

Ravshanovna

Jizzax shahar 2-son Politexnikumi „
Maxsus fanlar” kafedrası biznes
asoslari fani yetakchi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ta'lim tizimida o'quvchilarning tadbirkorlik va biznes ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy usullardan samarali foydalanib kelayotgan professional ta'lim muassalari faoliyati hisoblanadi. O'zbekistonda kasb-hunar ta'limi sharoitida tadbirkorlik va biznes ta'lim tizimini qamrab oladi. Bunda mavjud usullar va o'quv dasturlarini tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash, shuningdek, tadbirkorlik va biznes sohasida kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan innovatsion yondashuv va amaliyotlarni o'rganish kiradi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kognitiv, refleksivlik, innovatsion, sub'ektivlik, integratsiyalashuv.

Аннотация: Именно деятельность профессиональных образовательных учреждений эффективно использует современные методы развития предпринимательских навыков обучающихся в системе образования.

Он охватывает систему предпринимательства и бизнес-образования в контексте профессионального образования в Узбекистане. Сюда входит анализ

существующих методов и образовательных программ, оценка их эффективности, а также изучение инновационных подходов и практик, направленных на совершенствование процесса подготовки кадров в сфере предпринимательства и бизнеса.

Ключевые слова: компетентность, познание, рефлексивность, инновация, субъектность, интеграция.

Annotation: The educational system is an activity of professional educational institutions that effectively use modern methods to develop students' entrepreneurial skills.

In the context of vocational education in Uzbekistan, it covers the system of entrepreneurship and business education. This includes analyzing existing methods and curricula, assessing their effectiveness, as well as studying innovative approaches and practices aimed at improving the process of training personnel in the field of entrepreneurship and business.

Key words: competence, cognition, reflexivity, innovation, subjectivity, integration.

O'tgan yillar davomida mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi sezilarli darajada oshdi. Binobarin, professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining zimmasiga mamlakat iqtisodiy shakllanishining kelajagi uchun asosiy mas'uliyat yuki yuklatildi.

Iqtisodiyot, tadbirkorlik va jamiyat shakllanishida alohida o'rin tutishga qodir bo'lgan yangi avlod ishbilarmonlari, faol, yosh, ijodkorlarni yetishtirish zarur iyati kuchaydi. Yangi mehnat maydonlarini tashkil etish va ishsizlik darajasini pasaytirish, malakali kadrlar yaratish kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda yoshlar tadbirkorligi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Yoshlar tadbirkorligi kichik biznesning muhim segmenti hisoblanib, o'quvchilar tadbirkorligi istiqbollari

kengaytirish va ta'sirini oshirish uning salohiyatini ishga solish zarur ligini taqozo etmoqda.

Bugungi kunda jahon globallashuv sharoitida professional ta'lim tizimida yoshlar oldiga ta'lim olish bilan birga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri – egallagan kasbi bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini yuritish va dunyo talablari darajasida har tomonlama kompetentli mutaxassis bo'lib yetishish zarur atidir. Mehnat bozorida ishchi kadrlar va mutaxassislarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish vazifasini oldinga qo'ymoqdaki, bunda mazkur mutaxassislarning malaka darajasi ular bajaradigan kasbga oid ishlarning murakkabligidan yuqoriroq bo'lishi, bo'lajak mutaxassis nafaqat mamlakatdagi ishlab chiqarish va iqtisodiyotning hozirgi holatiga javob bera oladigan, balki ishlab chiqarishning tez o'zgaruvchan sharoitlari va texnologiyalariga ham tezkorlik bilan ta'sir ko'rsata olish imkoniyatini beradigan kasbiy tayyorgarlikdagi tadbirkorlik qismining ahamiyatini kuchaytirishga asoslanadigan ishchi kadrlarning kasbiy-malakali tuzilmasini rivojlantirish orqali tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish zarur .

Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar asosida professional ta'lim muassasalari tadbirkorlik o'quvchilarida ik ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beryvchi quyidagi shart-sharoitlar aniqlandi:

1. O'quv-me'yoriy hujjatlar;
2. Professional ta'limi muassasalari o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan axborot-ma'lumotlar bilan ta'minlash;
3. Ta'lim muassasalarida raqamli vositalar asosida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha pedagog kadrlar bilan ta'minlash;
4. O'quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish yo'nalishlarini tashkil etish.

Professional ta'limi muassasalari o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning birinchi sharti – o'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash va takomillashtirish.

Fanni metodik ta'minlanishining muhim elementi o'quv dasturi hisoblanib, u o'qitish jarayoni mazmunini Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq, bilim, ko'nikma va malakalar hajmini aniqlaydi, ularning o'zlashtirish tartibini belgilab beradi.

Professional ta'lim tizimi o'quvchilarini xorijiy tajribalar asosida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan simulyatsion va kompetentsiyaga asoslangan "Biznes asoslari" o'quv dasturi ishlab chiqildi va 2023 yil 25-avgustda tasdiqlandi (1-ilova). Ushbu o'quv dastur ning maqsadi, o'quvchilarga o'z biznes-g'oyasini amalga oshirish va shaxsiy daromadga ega bo'lish hamda daromadlarini oshirish uchun o'zining shaxsiy tadbirkorlik korxonasiga asos solishga o'rgatishdan iborat.

O'quv dastur 3 ta "simulyatsion o'yin"dan iborat bo'lib, ular "Jamg'arma o'yini" simulyatsiyasi 18 soat bo'lib, shundan, 12 soat biznes o'yin, 6 soat nazariy dars; "Mikro biznes o'yini" simulyatsiyasi 30 soat bo'lib, shundan, 22 soat biznes o'yin, 8 soat nazariy dars; "Biznesni rejalashtirish va kredit olish bo'yicha suhbatga tayyorgarlik ko'rish" o'yini 12 soat bo'lib, shundan, 6 soat nazariy dars, 6 soat amaliy mashqlardan iborat etib belgilandi.

"Biznes asoslari" o'quv dasturi 2023 o'quv yilidan joriy etilib, unda o'quv jarayoni maxsus jihozlangan auditoriyada tashkil etilishi, auditoriyada dars jarayonlari bir vaqtda ikki nafar pedagoglar tomonidan, kichik guruhlariga ajratilgan holda olib borilishi, shuningdek, har bir o'quv jarayoni simulyatsiya uchun zarur bo'lgan moddiy va metodik ta'minot vositalari yordamida tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Bunda Germaniyaning "German Sparkassenstiftung for International Cooperation" tashkiloti tomonidan hududdagi barcha professional ta'lim muassasalarini "Jamg'arma o'yini", "Mikro biznes o'yini", "Biznesni rejalashtirish va kredit olish bo'yicha suhbatga tayyorgarlik ko'rish" simulyatsion o'yinlari uchun zarur bo'ladigan moddiy va metodik ta'minot vositalari bilan ta'minlandi.

"Biznes asoslari" o'quv dasturi ni joriy etishda o'quv jarayonlari Germaniya tajribasidan kelib chiqib simulyatsion o'yinlar, Noy-hay sessiyalar, enerjayzerlar,

amaliy mashqlar, ishtirokchilarning taqdimotlari va feyedbeyk kabi usullardan foydalanib tashkil etiladi.

“Biznes asoslari” o‘quv dasturi davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanishi belgilangan. Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlar, ishbilarmonlik-vaziyatli rolli o‘yinlarni bajarish orqali o‘quvchilarning o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi.

Simulyatsion va kompetentsiyaga asoslangan o‘quv dastur asosida o‘quv jarayonlarini tashkil etish o‘quvchilarga ham o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, kichik guruhlarda ishlash orqali soft skills kompetensiyalarini shakllantirishga, amaliy mashqlar va simulyatsion o‘yinlar orqali amalda bajarib ko‘rish va real tasavvur shakllanishiga hamda hard skills kompetentsiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Professional ta'limi muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning ikkinchi sharti

tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha bilimlarni o‘z ichiga olgan o‘quv materialini mazmunini boyitishni taqozo etadi. Chunki, tadbirkorlik faoliyati hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ijtimoiy-iqtisodiy o‘rinni egallaydi. Hozirgi davrda mamlakatimiz bozor munosabatlari rivojlantirib borayotgani sababli ham, aynan, tadbirkorlik sohasini rivojlantirish aholining turli qatlamlarining bozor munosabatlariga tayyorgarligini va butun xo‘jalik tizimining bozor iqtisodiyotiga o‘tishini ta'minlashga yo‘naltirilgan davrda jamiyatimizni ijtimoiy qayta qurishning asosini tashkil etib bormoqda.

Professional ta'lim muassasalari o‘quvchilarida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘quvchilarning tadbirkorlik faolligi va ichki salohiyatini rivojlanishini, kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi ilg‘or innovatsion pedagogik texnologiyalarni an'anaviy o‘qitish shakllari bilan uyg‘un holda qo‘llash muhim hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik innovatsiyalar va o'qitish texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning kelgusida kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli yuritishlarini, kasbiy va shaxsiy rivojlantirib, turmushning tezda o'zgaruvchan sharoitlariga moslashishlarini, o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojlari uchun zarur bo'ladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni yuqori darajada egallashlari uchun xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichlari ta'lim maqsadlari va vazifalariga, o'qitish shakllari va metodlariga yangidan-yangi talablarni qo'yimoqda. Bo'lajak mutaxassislarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning yangi shakl va samarali metodlarini izlab topish va ularni joriy qilish dolzarb myammolardan hisoblanadi. By vazifani hal qilishda axborotni intensiv uzatishga, mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, bir vaqtning o'zida ham maxsus , ham axloqiy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlariga tayanadigan intensiv o'qitish texnologiyalari katta ahamiyatga ega. O'qitishning interfaol shakllari o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi, nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, ham mustaqil, ham jamoaviy qarorlarni qabyl qilish qobiliyatini shakllantirish, muammoli vaziyatlarni hal qila olish ko'nikmalarini egallash, kelisha olish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Professional ta'limi muassasalari o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning uchinchi sharti - ta'lim muassalarida raqamli vositalar asosida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha pedagog kadrlar bilan ta'minlash lozim.

O'zbekiston Respublika si Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi "German Sparkassenstiftung for International Cooperation" tashkiloti 2021 yil noyabr oyidan boshlab "Mas'uliyatli moliya" loyihasi doirasida hamkorlikni boshladi. "German Sparkassenstiftung for International Cooperation" tashkiloti Germaniyaning barcha omonat kassalarining rivojlanish loyihalarini amalga oshiruvchi fond hisoblanadi. Xususan, 2022 yil noyabr-dekabr hamda 2023 yil aprel oylarida "Mas'uliyatli moliya" loyihasi doirasida Germaniyalik mutaxassislar ishtirokida tadbirkorlikni tashkil etish va uni boshqarishning reallikka yaqin bo'lgan "Micro Business o'yini"

simulyatsiyasiga bag'ishlangan seminar o'tkazilib Toshkent shahri va Samarqand viloyatlaridagi 29 nafar tadbirkorlik fani o'qityvchilari o'qitildi hamda ylarga trenerlik sertifikatlar berildi. Trenerlik sertifikatiga ega bo'lgan pedagog kadrlar tomonidan 2022/2023 o'quv yil davomida Samarqand viloyati va Toshkent shahridagi professional ta'lim muassasalarida "Micro Business" o'yini bo'yicha seminarlar 1000 nafardan ortiq O'quvchilarni tadbirkorlikka o'rgatish va moliyaviy savodxonlikka o'qitilib, ylarga sertifikatlar berildi.

2023 yilning fevral, mart va noyabr oylarida Germaniyalik mutaxassislar tomonidan "Moliyaviy va tadbirkorlik ta'limi sohasida professional ta'lim muassasalari o'qityvchilari hamda rahbarlarini o'qitish va malakasini oshirish" loyihasi doirasida 14 nafar hududiy boshqarma mas'ul xodimlari hamda 34 nafar professional ta'lim muassasa o'qityvchilari tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitildi. Shuningdek, 2023 yilning 5 iyundan 21 iyul kynlari loyiha doirasida professional ta'lim muassasalarining 52 nafar direktorlari, o'rinbosarlari va tegishli mas'yl xodimlariga Germaniyalik mutaxassislar tomonidan o'quv seminar o'tkazildi.

Ushby trenerlar tomonidan 2023 yilning aprel, may va dekabr oylarida 558 nafar dan ortiq pedagog kadrlar Germaniya metodikasi asosida o'qitildi. Mazkur loyiha doirasida 2023 yil davomida professional ta'lim muassasalarining 750 nafar pedagog kadrlari Germaniya metodikasi asosida o'qitildi va trenerlik sertifikatiga ega bo'ldilar.

2024 yilning birinchi yarim yilligida 3 ta "Jamg'arish o'yini", "Business reja", "Mikro Business" modul bo'yicha 250 dan ortiq professional ta'lim muassasalarining 880 nafar o'qituvchilari hamda hududiy boshqarmalarning soha mutaxassislari xorijiy ekspertlar tomonidan o'qitildi. (3.1-jadval)

**Германия тажрибаси асосида молиявий саводхонликка ўқитилган
профессионал таълим муассасалари ўқитувчилари ва ҳудудий
бошқармларнинг соҳа ходимлари тўғрисида
МАЪЛУМОТ**

3.1-жадвал

№	Ҳудудлар номи	Машғулотларда иштирок этадиганлар сони	“Jamg’arish o’yini” модули бўйича ўқиганлар сон	“Business reja” модули бўйича ўқиганлар сон	“Mikro Business” модули бўйича ўқиганлар сон
	Жами	880	530	565	549
1.	Қорақалпоғистон Республикаси	74	49	39	43
2.	Андижон вилояти	84	64	53	55
3.	Бўхоро вилояти	69	59	60	60
4.	Жиззах вилояти	53	25	26	26
5.	Қашқадарё вилояти	90	47	72	69
6.	Навоий вилояти	38	22	27	24
7.	Наманган вилояти	109	80	62	56
8.	Самарқанд вилояти	97	46	62	50
9.	Сирдарё вилояти	38	14	23	24
10.	Сўрхондарё вилояти	52	38	32	31
11.	Тошкент вилояти	49	27	26	41
12.	Фарғона вилояти	45	24	24	24
13.	Хоразм вилояти	32	19	29	28
14.	Тошкент шаҳри	50	16	30	18

Professional ta'limi muassasalari o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning to'rtinchi sharti - O'quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishda ijtimoiy yo'nalishlarini tashkil etish. Bylarga "Yosh tadbirkorlar" biznes-klubi, yosh tadbirkorlarni qo'llab-qyvvatlash va tadbirkorlik asoslarini o'rgatishni tashkil etish markazlari va boshqalar.

Professional ta'lim muassasalarida "Yosh tadbirkorlar" biznes klubi tashkil etilgan bo'lib, Ushbuklubni tashkil etishdan maqsadi o'z tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishni rejalashtirayotgan o'quvchilarga murabbiylik tizimi orqali amaliy yordam va maslahatlar berishdan iborat. Mazkur biznes-klub loyihasini amalga oshirish jarayoni quyidagilarni bajarishga imkon berdi:

1. Bo'lajak tadbirkorlar bilan amalda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar bilan bevosita aloqalar o'rnatish.
2. Bo'lajak tadbirkorlarning o'z ishini olib borish masalalari bo'yicha muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar bilan amaliy tajriba almashish.
3. Tadbirkorlik faoliyati bilan ularning funktsiyalarini takrorlash orqali amaliy tanishish.
4. O'quvchi-yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish.
5. O'z biznes-g'oyalarini amalga oshirish va boshqalar.

By vazifalarni amalga oshirishda o'quvchilar biznes-rejaning mohiyati va zarur iyyati hamda uni tuzish tartib-qoidalari bilan tanishtirildi.

Biznes-klub faoliyatining asosiy yo'nalishlari esa quyidagilar hisoblanadi: tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga alohida istak, xohish va qobiliyati bo'lgan O'quvchilarni aniqlash; professional ta'lim muassasasida O'quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, qiziqishlarini o'rganish; o'quvchilarda tadbirkorlik sohasi bo'yicha chuqyr bilimlarni shakllantirish tadbirlarini amalga oshirish; o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida Savdo-sanoat palatasi, texnika va texnologiyalarni ishlab chiqishga ixtisoslashgan korxonalar bilan hamkorlik ishlarini amalga oshirish; tadbirkorlik faoliyatida yuqori natijalarga erishgan tajribali va malakali mutaxassislarni jalb etgan holda ta'lim muassasasida, tuman (shahar)

hududlari miqyosida davra suhbatlari, seminarlar, treninglar va master klass darslarini tashkil etish; iqtidorli o'quvchilar va mas'ul o'qityvchilar uchun tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha biznes-rejalarni tayyorlashni o'rgatish; tijorat banklaridan tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun kredit olish tartibi hamda olingan pul mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish bo'yicha tijorat banklarining tegishli mutaxassislarini jalb etgan holda maxsus o'quv kurslarini olib borishlari mumkin. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida "Yosh tadbirkorlar" biznes klubi doirasida muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar, tijorat bank va "Yagona darcha", tuman soliq inspeksiyasi xodimlari bilan hamkorlikda davra suhbatlari hamda biznes-sayohatlar tashkil etildi.

Tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning tashkiliy shart-sharoitlarini ta'minlash bo'lajak mutaxassislarda kelajakda o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda muhim omili bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Uzbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi qonuni, URQ637-son, 2020 (Law of the Republic of Uzbekistan "On Education", URQ-637, 2020), available at: <https://lex.uz/docs/5013007>
2. Safin R. S. et al. Innovative entrepreneurship in education: a new look in the students training content and existing problems //International Review of Management and Marketing. – 2016. – T. 6. – №. 2. – C. 51-56.
3. Lelahester R., Murtini W., Indriayu M. Establishment of entrepreneurial character in the foundation based school system through project based learning //International Journal of Educational Research Review. – 2018. – T. 3. – №. 4. – C. 128-140.
4. Morselli D. How do Italian vocational teachers educate for a sense of initiative and entrepreneurship? Development and initial application of the SIE questionnaire //Education+ Training. – 2018. – T. 60. – №. 7/8. – C. 800-818.

5. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/23_Suyunov_Khoshimov.pdf.
6. Ismailova Z. K. et al. Development of entrepreneurial skills among students of technical institutions through innovative technologies //DEVELOPMENT. – 2020. – T. 1. – C. 1-2020.
7. Khimmataliyev D. O. et al. Formation Of A Cluster System In The Sphere Of Education In Uzbekistan: Problems And Prospects //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 5634-5638.
8. Ergasheva F. I. THEORETICAL FOUNDATIONS OF PROBLEMS AND SOLUTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL SKILLS AMONG STUDENTS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 12. – C. 55-60.
9. Muydinovich R. I. Innovative approach to ensuring the continuity of teaching computer science in the system of continuous education of the New Uzbekistan //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 1622-1629.
10. Akhunova M. K. The role of innovation in the development of the new Uzbekistan //Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. – 2023. – T. 3. – №. 1. – C. 11-20.